

ISLOM TA'LIMOTIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING IFODALANISHI

Ibragimova Shoira Kosimovna

Guliston davlat universiteti

Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7902683>

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi, tasavvufiy olimlar fikri, ta'lim-tarbiyada diniy masalalar mavzusi yoritilgan.

Kalit so'zlar: islom, din, jahon, taraqqiyot, ma'naviyat, madaniyat, ta'lim, tarbiya.

Jahon dinlaridan, umumbashariy taiimotlardan bo'ib hisoblangan Islom dini insonga mohiyat, faoliyatiga maqsad va yo'nalish bemo'vchi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, birlashtirib, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotni tezlashtirish uchun xizmat qiladigan ma'naviyat, ma'rifat odob-axloq tarbiyasining barcha me'morlarini o'z ichiga qamrab oladi. Umuman olganda, islom dini yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga oid bo'lgan fikrlar, qarashlar, taiimotlarning mukammal manbai, yaxshi ilmiy-dunyoviy, diniy tizimidir. Islom dini necha-necha asrlar mobaynida odamlarni, bani bashariyatni ulug' maqsadlar yo'lidagi birlashtirishga, hamjihat bo'lishga, tinchlik-totuvlikni mustahkamlashga, axloqiy va ma'rifiy kamolotga, halollik va poklikka, imon va e'tiqodga mehnatsevarlik va vatanparvarlikka, ezgulik va saxovatga, bag'ri-kenglik va mehroqibatlilik, ezgulik maqsadlari yo'lida qonun- qoidaga berishga, o'zaro nizolar, qonli to'qnashuvlarga, milliy, irqiy, diniy kamsitilishlarga yo'l qo'ymaslikka, umumiy uyimiz-kurrai zaminda do'st-birodrlar, ahil hamkor bo'ib yashashga, umuminsoniy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat boyliklaridan, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan o'zaro bahramand bo'lishga da'vat etib kelmoqda.

Islom dinining umumbashariy qadriyat, ilohiy, ilmiy-dunyoviy taiimot sifatida barhayotligini ta'minlab kelayotgan asosiy manbalari Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardir. Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, «Ilm» so'zi asosidagi «alima» (bilmoq) fe'i negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'ib, bu o'zak faqat «Alloh», «Rabb» (Parvardigor ma'nosida), «boimoq» va «gapirmoq» kabi eng ko'p ishlatilgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan

Rasulohga nozil bo'lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni Karim matni 96- surasi («Alaq»)ning birinchi oyatlari bo'ib, shunday boshlanadi: «Iqra' bi-ismi robbikal-lazi xalaq!» («Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi!»). Oradan bir oyat o'tib yana «o'qi!» so'zi qaytariladi: «Iqra' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya'lam» («O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi»). Ilmga qiziqtirish borasida Alloh Qur'onda shunday deydi: «Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'lsa oladilarmi albatta bu haqda faqat aqlli kishilargina eslaydilar: («Zumar» surasi, 9-oyat). Boshqa bir oyatda ilmi kishilar Allohning huzurida boshqalardan ko'ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan: «Alloh taolo sizlardan imon keltirganlarni va ilmi bo'lganlarning darajasini ko'taradi» («Mujodala» surasi, 11-oyat). Alloh O'zining yagonaligiga ham ilmi kishilarni guvoh qilgan: «Alloh albatta uning o'zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo'qligiga shohidlik beradi.

Aksincha, Qur'on ilmsizlarni tanqid qiladi: «Shunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo'ygadi». («Rum» surasi, 59-oyat). Qur'on ilmning chegarasi yo'q ekanligini ham bayon qilib o'tgan: «Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor» («Yusuf» surasi, 76-oyat). Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o'z ilmlari bilan mag'rurlanib, O'z ustida ishlashni tark

etmasinlar, doimo ulami ham birov tanqid qilib qolishiga o'zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur'on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo'lishga chaqiradi «Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt» (qabul qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo'lsa kiradi. Bu ulaming orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to'g'ri bo'lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgin» («Baqara» surasi, 111-oyat).

Bir narsaga dalil va hujjat bo'lmasa, ishonib bo'lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e'tiqodida bo'lganlarni Alloh so'roq qiladi: «Kim Alloh bilan qo'shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo'lsa, uning hisob-kitobi Allohning huzurida bo'ladi. Albatta kofirlar najot topmaydilar» («Mo'minun» surasi, 117-oyat). Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Gumonni rost deyish to'g'ri emas. Bir masala to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar hujjati kuchli bo'lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli bo'lmasa, masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur'on ta'limotlariga ham to'g'ri keladi.

Qur'on haqiqiy - ilmiy narsalarga suyanishga, gumon va xayollardan uzoqda bo'lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo'lishini aytib o'tadi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar» («Rum» surasi, 29-oyat). Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko'rsatib, shunday deydi: «O'zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko'z, quloq va qalb barcha narsadan so'raladi» («Isro» surasi, 36-oyat). Oyatning ma'nosi shuki, o'zing aniq bilmasang, senga aytiladigan turli-tuman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog'i eshitgan, ko'zi ko'rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so'roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o'tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo'lishi zamrligini, gumon va turli fikrlar boimasligini anglatadi. Ilm ko'r-ko'rona taqliddan qaytarishda Qur'on bilan muvofiqdir. Qur'onda bir fikmi ota-bobomiz qilgan deb, o'zlari aql ishlatmay yurganlar tanqid qilingan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va payg'ambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydlar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan va to'g'ri yo'lda yurmagan bo'lsalar, unda nirna bo'ladi» («Moida» surasi, 104-oyat). Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar deyilsa, ular, yo'q biz otabobolarimizdan ko'rganimizni qilamiz, deydlar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan bo'lsalar va to'g'ri yo'lda yurmagan bo'lsalar, unda nima bo'ladi. Kofirlar xuddi bir qo'y podasiga o'xshaydilarki, ular cho'ponning qichqirig'ini eshitadilar-u, ma'nosiga tushunmaydilar. Ular kar va ko'rdirlar, aqlarini ishlatmaydilar» («Baqara» surasi, 170-171-oyatlar). Qur'onning shu oyatlaridan ko'rinib turibdiki, aql ishlatmay, o'zi ishonch hosil qilmay — ko'r-ko'rona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, ko'rko'rona taqlid qilgani bilan mo'min bo'la olmaydi.

Qur'on xalqlarni boshliqlar va yo'l boshchilarga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan ehtiyotlanishga chaqiradi. Qur'onda talqin qilinishicha, yo'l boshchilar ham va unga ergashganlar ham noto'g'ri yo'lda bo'lsalar — qiyomat kunida teng azob chekadilar. Buning ma'nosi shuki, bu dunyoda yo'l boshchilik qilganlar, qiyomat kunida o'ziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor bo'lib oralaridagi aloqa uzilar ekan. Qur'on ota-bobolarga, boshliqlarga va yo'l boshchilarga ko'rko'rona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi bo'lsa o'sha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi: «Ular (musulmonlar) gapni eshitganlaridan so'ng, eng yaxshisiga ergashadilar. Shunday kishilarni Alloh to'g'ri yo'lga boshlaganlar va ular aql egalardirlar»

(«Zumar» surasi, 18-oyat). Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha gaplarni eshitib, tushunib, soʻngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va oʻtkir aql egalari, deb ataydi. Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytiladi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qurʼon barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qurʼonda aqlga taalluqli soʻzlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining soʻzi esa 10 martadan koʻproq ishlatilgan. Shuning oʻzi ham Qurʼon aqlga katta eʼtibor berganini dalilidir. Qurʼon aqlning ulkan neʼmat ekanligini bayon qiladi: «Albatta bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor» («Raʼd» surasi, 4-oyat). «Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib qoʻydik. Aqlni ishlatmaydilar» («Baqara» surasi, 76-oyat) va hokazo. Boshqa oyatlarda esa, aqlni ishlatmaganlarni ayblaydi: «Allohnin huzurida eng yomon jonzoʻtlar kar-soqov, aqlni ishlatmaydiganlaridir» («Anfol» surasi, 22-oyat). «Sen ularning koʻplari eshitadilar va aql ishlatadilar, deb hisoblaysanmi.

Ular xuddi hayvonlarga oʻxshaydilar, balki hayvonlardan ham battardurlar» («Furqon» surasi, 34-oyat). Boshqa bir oyatda aqlni ishlatmaslik oxirat azobiga sabab boʻlganligini eslatadi: «Ular (doʻzaxilar) agar eshitganimizda va aql ishlatganimizda doʻzaxilardan boʻimas edik, deyishadi» («Mulk» surasif 10-oyaf). Mana shu narsalarning barchasi Islomdan aql va aqliy tarbiyaning naqadar ulkan baholanishini koʻrsatadi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom taʼlimoti mujassamlashgan Qurʼoni Karimdagi «Biz odam bolalarini azizmukarram qildik, ularga halol-pok narsalardan rizqu-roʻz berdik va ularni oʻzimiz yaratgan juda koʻp jonzoʻtlardan afzal-ustun qilib qoʻydik»; «Ey moʻminlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan yenglar», «Bandalarimga aytingki, ular eng goʻzal soʻzlardan soʻzlashsinlar», «Odamlarni aldab fitnaga solish oʻldirishdan yomonroqdir», «Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi», «Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi...» kabi muhim gʻoyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagi «Ilm egallang! Ilm-sahroda doʻst, hayot yoʻllarida tayanch, yolgʻizlik damlarida - yoʻldosh, baxtiyor daqiqalarda - rahbar, qaygʻuli onlarda - madadkor, odamlar orasida - zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir»; «Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir»; «Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz», «Yoshlikda olingan ilm toshga oʻyilgan naqsh kabidir»; «Yolgʻon soʻzlama», «Oʻzinga ravo koʻrganni boshqalarga ham ravo koʻr», «Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka oʻtmanglar», «Axmoqdan uzoqlashing», «Nonni eʼzozlanglar»; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Taʼkidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirgʻoniy, Abduxoliq Gʻijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom taʼlimotini, Qurʼoni Karimni, paygʻambarimizning aytgan soʻzlari, diniy va axloqiy yoʻl-yoʻriqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning taʼsirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va taʼlim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi, shuningdek, asarlarining mazmun-mohiyati va gʻoyasi ham Qurʼoni Karim va Hadisi Sharif taʼlimotiga asoslanadi.

Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod oʻrgatish Qurʼoni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar oʻrganish va ulardagi koʻrsatmalarni oʻzlashtirish bilan olib borilgan. Shunga koʻra, Qurʼoni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar,

ham adiblar ijodiga kuchli ta'sir etgan va islom ta'limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bularda ilgari surilgan g'oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday qilib, biz islom ta'limotida, ta'lim-tarbiya masalalarining tutgan o'rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining xarakterli tomoni shundaki, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta'limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvumning bir ko'rinishi sifatida o'z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o'rin egalladi..

References:

1. Asqar Zunnunov. Xalq pedagogikasida akliy tarbiya. // Xalq ta'limi, 1994-yil 3-4-sonlari.
2. Asqar Zunnunov. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar.-T.: «Fan». 1996.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. - T.: «Ma'naviyat», 1998. 14. Amir Temur. Zafar yoi. — T.: «Hyp», 1992.
4. «Avesto», Tarixiy — adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: «Sharq», 2001.
5. Aziz Qayumov. Qadimiyat obidalari. — T.: G'afiir G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
6. Alisher Navoiy. Xamsa. - T.: «Fan» 1960.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 12-tom. — T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.